



O'QUVCHILAR XULQ-ATVORINI SHAKLLANTIRISHDA SHARQ PEDAGOGIK MEROSINING AHAMIYATI

Xasanov Abdulloh

Qo'qon davlat pedagogika universiteti
xasanovabdullox@gmail.com

Аннотация

Mazkur maqolada o'quvchilar xulq-atvorini shakllantirishda Sharq pedagogik merosining va ahamiyati tahlil qilinadi. Sharq mutafakkirlarining asarlarida ilgari surilgan axloqiy va tarbiyaviy g'oyalar o'quvchilarda ijtimoiy xulq me'yorlarini shakllantirishda muhim manba sifatida qaraladi. Shuningdek, ushbu merosning zamonaviy ta'lim jarayoniga integratsiya qilinishi, uning tarbiyaviy samaradorligi, o'quvchilarda ijtimoiy mas'uliyat, axloqiy qadriyatlar va ongli xulqni rivojlantirishda milliy va ma'naviy merosdan foydalanish zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Sharq pedagogik merosi, xulq-atvor, axloqiy tarbiya, o'quvchilar, ijtimoiy talablar, ma'naviy qadriyatlar, tarbiya, komil inson, pedagogik yondashuv.

Аннотация: В данной статье анализируется значение восточного педагогического наследия в формировании поведения учащихся. Моральные и воспитательные идеи, изложенные в трудах восточных мыслителей, рассматриваются как важный источник формирования норм социального поведения у учащихся. Также обосновывается интеграция этого наследия в современный образовательный процесс, его образовательная эффективность, необходимость использования национального и духовного наследия для развития социальной ответственности, моральных ценностей и сознательного поведения у учащихся.

Ключевые слова: восточное педагогическое наследие, поведение, нравственное воспитание, учащиеся, социальные требования, духовные ценности, образование, совершенная личность, педагогический подход.

Abstract: This article analyzes the importance of the Eastern pedagogical heritage in shaping the behavior of students. The moral and educational ideas put forward in the works of Eastern thinkers are considered an important source in shaping the norms of social behavior in students. It also substantiates the integration of this heritage into the modern educational process, its educational effectiveness, the need to use national and spiritual heritage in developing social responsibility, moral values, and conscious behavior in students.

Keywords: Eastern pedagogical heritage, behavior, moral education, students, social requirements, spiritual values, education, perfect person, pedagogical approach.

KIRISH

Hozirgi globallashuv jarayonida ta'lim tizimi oldida nafaqat bilim berish, balki barkamol shaxsni tarbiyalash vazifasi ham dolzarb masala sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, o'quvchilar xulq-atvorini ijtimoiy talablar asosida shakllantirish bugungi kunda muhim pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Chunki jamiyat taraqqiyoti ko'p jihatdan yosh avlodning axloqiy darajasi, ijtimoiy faolligi va mas'uliyatiga bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, Sharq pedagogik merosi o'zining boy mazmuni va chuqur tarbiyaviy g'oyalari bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Sharq mutafakkirlari inson tarbiyasini har tomonlama mukammal rivojlantirishga yo'naltirgan bo'lib, ularning qarashlarida axloq, odob, ijtimoiy munosabatlar va shaxs kamoloti masalalari markaziy o'rin egallaydi. Ushbu meros bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib, uni zamonaviy ta'lim jarayoniga tatbiq etish o'quvchilarda ijobiy xulq-atvorni shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Sharq pedagogik merosi o'quvchilar xulq-atvorini shakllantirishda muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu meros asrlar davomida shakllangan bo'lib, unda insonning ma'naviy kamoloti, axloqiy yetukligi va jamiyatdagi o'rni haqida chuqur fikrlar bayon etilgan. Sharq mutafakkirlari tarbiyani inson hayotining ajralmas qismi sifatida ko'rib, uni nafaqat bilim berish jarayoni, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirish vositasi deb hisoblaganlar.

Sharq pedagogik qarashlarida xulq-atvor masalasi markaziy o'rin tutadi. Xulq-atvor faqat tashqi harakatlar majmui emas, balki insonning ichki dunyosi, qadriyatlari va e'tiqodlari bilan chambarchas bog'liq hodisa sifatida talqin qilinadi. Shu sababli, mutafakkirlar o'quvchilarni tarbiyalashda ularning ongiga, tafakkuriga va ruhiy olamiga ta'sir ko'rsatishni muhim deb bilganlar. Bu yondashuv bugungi zamonaviy pedagogika bilan hamohang bo'lib, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim g'oyalariga mos keladi. Sharq mutafakkirlarining asarlarida komil inson tushunchasi alohida ahamiyatga ega. Komil inson – bu nafaqat bilimli, balki yuksak axloqiy fazilatlarga ega, jamiyatda o'z o'rnini anglaydigan va boshqalarga foyda keltira oladigan shaxsdir. Bunday insonni tarbiyalash jarayoni esa o'quvchilarda halollik, rostgo'ylik, sabr-toqat, hurmat va mas'uliyat kabi fazilatlarni shakllantirishni talab etadi. Ushbu fazilatlar o'quvchilarning kundalik xulq-atvorida namoyon bo'lib, ularning ijtimoiy muhitga moslashuvini osonlashtiradi.

Sharq pedagogik merosida axloqiy tarbiya oiladan boshlanishi va ta'lim muassasalarida davom ettirilishi lozimligi ta'kidlanadi. Oila muhitida shakllangan dastlabki xulqiy ko'nikmalar maktabda mustahkamlanadi va rivojlantiriladi. Shu sababli, o'qituvchi va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik o'quvchilar xulq-atvorini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Bu jihat zamonaviy pedagogik yondashuvlarda ham muhim o'rin egallaydi. Yana bir muhim jihat shundaki, Sharq mutafakkirlari tarbiyada namuna ko'rsatish usuliga katta e'tibor berganlar. Ularning fikricha, o'quvchi ko'proq ko'rgan va kuzatgan narsasidan ta'sirlanadi. Shu bois, o'qituvchi va kattalar o'z xulq-atvori bilan yoshlar uchun ibrat bo'lishi lozim. Bu

prinsip bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolgan bo'lib, pedagogning shaxsiy namunasining tarbiyaviy ta'siri juda yuqori baholanadi.

Sharq pedagogik merosida ilm va axloq o'rtasidagi uyg'unlik masalasi keng yoritilgan. Faqat bilim berish yetarli emas, balki uni to'g'ri yo'naltirish ham muhimdir. Agar bilim axloq bilan uyg'unlashmasa, u jamiyat uchun foydadan ko'ra zarar keltirishi mumkin. Shu sababli, o'quvchilarga berilayotgan bilimlar axloqiy qadriyatlar bilan boyitilishi zarur. Bu esa ta'lim jarayonida fanlararo integratsiya va tarbiyaviy komponentlarni kuchaytirishni talab etadi. Zamonaviy ta'lim tizimida Sharq pedagogik merosidan foydalanishning turli usullari mavjud. Masalan, dars jarayonida mutafakkirlarning hikmatli so'zlari, pand-nasihatlari va asarlaridan parchalarni keltirish o'quvchilarda qiziqish uyg'otadi va ularning tafakkurini rivojlantiradi. Shuningdek, muammoli vaziyatlar yaratish, bahs-munozaralar tashkil etish orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish mumkin. Bu usullar o'quvchilarning xulq-atvoriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bundan tashqari, tarbiyaviy tadbirlar, sinfdan tashqari mashg'ulotlar va ijtimoiy loyihalar orqali ham o'quvchilarda ijtimoiy xulqni shakllantirish mumkin. Bu jarayonda milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Chunki ular o'quvchilarda o'zlikni anglash, milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantiradi. Shu bilan birga, zamonaviy axborot texnologiyalari davrida o'quvchilarning xulq-atvoriga turli omillar ta'sir ko'rsatmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari yoshlar ongiga kuchli ta'sir etmoqda. Bunday sharoitda Sharq pedagogik merosining ahamiyati yanada ortadi. Chunki u o'quvchilarga to'g'ri yo'lni tanlash, axloqiy me'yorlarga amal qilish va salbiy ta'sirlarga qarshi turish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Umuman olganda, Sharq pedagogik merosi o'quvchilar xulq-atvorini shakllantirishda boy va samarali manba hisoblanadi. Uning asosiy g'oyalari bugungi ta'lim tizimi talablariga mos keladi va ularni amaliyotga tatbiq etish orqali o'quvchilarda ijobiy xulq-atvorni rivojlantirish mumkin. Shu sababli, ushbu merosni chuqur o'rganish va ta'lim jarayoniga keng joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'quvchilar xulq-atvorini shakllantirish masalasi pedagogika fanida keng o'rganilgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Sharq pedagogik merosi asosida tarbiya masalalari ko'plab tadqiqotchilar tomonidan turli nuqtai nazardan tahlil qilingan. Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy ishlar o'quvchilarda axloqiy fazilatlarini rivojlantirishda milliy va ma'naviy qadriyatlarning muhim o'rin tutishini ko'rsatadi.

O'zbekistonlik olimlar tomonidan bu masala ko'proq milliy tarbiya va ma'naviy qadriyatlar bilan bog'liq holda tadqiq etilgan. Xususan, A.Avloniy asarlarida tarbiya masalasi "hayot-mamot masalasi"¹ sifatida talqin qilinib, unda axloqiy tarbiya yetakchi o'ringa qo'yiladi. U yosh avlodni komil inson sifatida shakllantirishda ma'naviy omillarning ustuvorligini ta'kidlaydi. Zamonaviy tadqiqotchilardan biri sifatida N.Muslimov pedagogik jarayonda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv va milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya masalalarini chuqur o'rgangan. Uning ishlarida

¹ Avloniy, A. (1992). *Turkiy guliston yoxud axloq*. Toshkent: O'qituvchi.

“o‘quvchilar xulq-atvorini shakllantirishda ijtimoiy muhit va ta‘lim tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlik muhim ahamiyat ega.”² ekanligi asoslab berilgan.

MDH mamlakatlari olimlari ham mazkur muammoni keng yoritgan. Masalan, V.A.Slastenin pedagogik jarayonni yaxlit tizim sifatida ko‘rib, unda tarbiya va ta‘limning o‘zaro bog‘liqligini asoslaydi. Unga ko‘ra, “O‘quvchilarning xulq-atvori faqat bilim orqali emas, balki tarbiyaviy ta‘sirilar orqali shakllanadi.”³ Shuningdek, I.P.Podlasiy o‘z tadqiqotlarida pedagogik texnologiyalar va tarbiyaviy jarayonning samaradorligini oshirish masalalariga alohida e‘tibor qaratadi. Uning fikricha, “O‘quvchilarning ijtimoiy xulqini shakllantirish tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatni talab etadi.”⁴

Jahon miqyosida esa bu muammo ko‘proq shaxs rivoji va ijtimoiylashuv jarayonlari bilan bog‘liq holda o‘rganilgan. Xususan, John Dewey ta‘limni ijtimoiy tajriba sifatida talqin qilib, o‘quvchilarning xulq-atvori amaliy faoliyat jarayonida shakllanishini ta‘kidlaydi. U “Zamonaviy ta‘lim tizimida faol metodlardan foydalanish zarur.”⁵ ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, Lawrence Kohlberg tomonidan ishlab chiqilgan axloqiy rivojlanish nazariyasi “O‘quvchilarning axloqiy fikrlash darajalari bosqichma-bosqich shakllanishini”⁶ asoslab beradi. Bu nazariya o‘quvchilar xulq-atvorini tushunishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib, o‘quvchilar xulq-atvorini shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, Sharq pedagogik merosi ushbu jarayonda nazariy va amaliy jihatdan boy imkoniyatlarga ega bo‘lib, uni zamonaviy ta‘lim tizimiga integratsiya qilish zarurati mavjud.

Mazkur ishda o‘quvchilar xulq-atvorini shakllantirishda Sharq pedagogik merosining o‘rnini aniqlash maqsadida bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy va amaliy yondashuvlarning uyg‘unligiga asoslanadi. Avvalo, nazariy tahlil metodi qo‘llanilib, Sharq mutafakkirlarining asarlari, pedagogik manbalar hamda zamonaviy ilmiy adabiyotlar o‘rganildi. Ushbu metod orqali o‘quvchilar xulq-atvorini shakllantirishga oid asosiy tushunchalar, tamoyillar va yondashuvlar tizimlashtirildi. Shuningdek, qiyosiy tahlil yordamida turli davr va hudud olimlarining qarashlari o‘zaro solishtirildi. Tadqiqot jarayonida kuzatish metodi ham muhim ahamiyat kasb etdi. Bu metod orqali ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning xulq-atvori, ularning o‘zaro munosabatlari va ijtimoiy faoliyati tahlil qilindi. Kuzatish natijalari o‘quvchilarda axloqiy fazilatlarining shakllanish darajasini aniqlashga yordam berdi.

Bundan tashqari, suhbat va so‘rovnomalar metodlari yordamida o‘qituvchilar va o‘quvchilarning fikrlari o‘rganildi. Ushbu metodlar orqali Sharq pedagogik merosidan foydalanishning amaliy jihatlari, uning samaradorligi va mavjud muammolari aniqlashtirildi. Olingan natijalar umumlashtirilib, tegishli xulosalar chiqarildi. Tadqiqotda tizimli yondashuv metodi ham qo‘llanildi. Bu yondashuv o‘quvchilar xulq-

² Muslimov, N. (2015). *Pedagogik kompetentlik*. Toshkent. O‘qituvchi.

³ Сластенин, В.А. (2002). *Педагогика*. Москва: Академия.

⁴ Подласий, И.П. (2004). *Педагогика*. Москва: Владос.

⁵ Dewey, J. (1916). *Democracy and Education*. New York: Macmillan.

⁶ Kohlberg, L. (1981). *The Philosophy of Moral Development*. San Francisco: Harper & Row.

atvorini shakllantirish jarayonini murakkab tizim sifatida ko‘rib chiqishga imkon berdi. Unda oila, maktab va ijtimoiy muhit o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik inobatga olindi. Umuman olganda, tanlangan metodlar tadqiqot maqsadiga erishish, olingan natijalarning ishonchliligini ta‘minlash va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishga xizmat qildi.

NATIJALAR

O‘quvchilar xulq-atvorini shakllantirishda Sharq pedagogik merosidan foydalanishning samaradorligi turli metodlar orqali o‘rganildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, ushbu merosga asoslangan yondashuv o‘quvchilarda ijobiy axloqiy sifatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Avvalo, kuzatish natijalari asosida aniqlanishicha, dars jarayonida Sharq mutafakkirlarining hikmatli fikrlari va tarbiyaviy g‘oyalaridan foydalanilgan sinflarda o‘quvchilarning xulq-atvorida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Xususan, o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hurmat, intizom va mas‘uliyat hissi ortgani qayd etildi. Ular o‘z fikrlarini erkin ifoda etish bilan birga, boshqalarning fikriga ham hurmat bilan yondasha boshlaganlari kuzatildi. Shuningdek, suhbat va so‘rovnoma natijalari o‘qituvchilarning aksariyati Sharq pedagogik merosidan foydalanishni samarali deb hisoblashlarini ko‘rsatdi. Ularning fikricha, bu yondashuv o‘quvchilarga faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki ularning ma‘naviy dunyosini boyitishga xizmat qiladi. O‘quvchilar esa bunday darslarni qiziqarli va mazmunli deb baholaganliklarini bildirdilar.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari Sharq pedagogik merosiga asoslangan yondashuv o‘quvchilar xulq-atvorini shakllantirishda ijobiy natijalar berishini ko‘rsatdi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarda axloqiy fazilatlarni rivojlantirish bilan birga, ularning ijtimoiy moslashuvini ham yaxshilaydi.

MUHOKAMA

Sharq pedagogik merosi o‘quvchilar xulq-atvorini shakllantirishda samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Bu holat ilgari olib borilgan ilmiy tadqiqotlar bilan ham mos keladi. Chunki ko‘plab olimlar tarbiya jarayonida milliy va ma‘naviy qadriyatlarining o‘rni muhim ekanligini ta‘kidlaganlar. Natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning xulq-atvoriga ta‘sir ko‘rsatishda faqat nazariy bilimlar yetarli emas. Amaliy faoliyat, real hayotiy vaziyatlar va ijtimoiy tajriba muhim rol o‘ynaydi. Shu nuqtai nazardan, Sharq mutafakkirlarining qarashlari zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashadi. Ular ham shaxsni faol ishtirokchi sifatida ko‘rib, uning ichki dunyosiga ta‘sir ko‘rsatishni muhim deb bilganlar. Biroq, tadqiqot jarayonida ayrim muammolar ham aniqlandi. Xususan, barcha o‘qituvchilar ham Sharq pedagogik merosidan samarali foydalanish ko‘nikmalariga ega emasligi kuzatildi. Ba‘zi hollarda ushbu merosdan faqat nazariy darajada foydalanilib, uning amaliy jihatlari yetarlicha ochib berilmaydi. Bu esa tarbiyaviy jarayon samaradorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi Sharq pedagogik merosi o‘quvchilar xulq-atvorini shakllantirishda muhim omil ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Uni zamonaviy ta‘lim tizimi bilan uyg‘unlashtirish orqali yanada yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

XULOSA

O‘quvchilar xulq-atvorini shakllantirish jarayonida Sharq pedagogik merosi muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Ushbu merosda ilgari surilgan axloqiy g‘oyalar, ma‘naviy qadriyatlar va tarbiyaviy yondashuvlar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Ayniqsa, o‘quvchilarda ijtimoiy mas‘uliyat, hurmat, halollik va intizom kabi sifatlarni shakllantirishda bu qarashlar samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Sharq mutafakkirlarining asarlaridan ta‘lim jarayonida maqsadli va tizimli foydalanish o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning axloqiy kamolotini ham oshiradi. Bu esa ta‘limning asosiy maqsadlaridan biri bo‘lgan barkamol shaxsni tarbiyalash vazifasiga mos keladi. Shu bilan birga, ushbu merosni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish orqali yanada yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilar xulq-atvorini shakllantirishda Sharq pedagogik merosidan foydalanish nafaqat ilmiy asoslangan, balki amaliy jihatdan ham zarur yondashuv hisoblanadi. Uni ta‘lim tizimiga keng joriy etish, o‘qituvchilarning bu boradagi kompetensiyasini rivojlantirish va metodik ta‘minotni takomillashtirish kelgusida muhim vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Avloniy, A. (1992). Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: O‘qituvchi.
2. Muslimov, N. (2015). Pedagogik kompetentlik. Toshkent. O‘qituvchi.
3. Сластенин, В.А. (2002). Педагогика. Москва: Академия.
4. Подласий, И.П. (2004). Педагогика. Москва: Владос.
5. Dewey, J. (1916). Democracy and Education. New York: Macmillan.
6. Kohlberg, L. (1981). The Philosophy of Moral Development. San Francisco: Harper & Row.